

Azizov Uchqun Sharofiddinovich

Iqtisodiyot mutaxassisligi 2-kurs magistranti,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekistonda sanoat korxonalarining rivojlanish tendensiyalari, sanoat tarmoqlarida amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlari hamda innovatsion texnologiyalarning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqot davomida sanoat ishlab chiqarishining o‘sish sur’atlari, raqamlashtirish jarayonlari, investitsion faollik va eksport salohiyatining rivojlanish yo‘nalishlari o‘rganildi. Natijalar sanoat korxonalarida texnologik yangilanish va raqamli transformatsiya ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: sanoat korxonalari, sanoat rivojlanishi, modernizatsiya, raqamlashtirish, innovatsiyalar, ishlab chiqarish samaradorligi, eksport salohiyati.

DEVELOPMENT TRENDS OF INDUSTRIAL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN

Azizov Uchqun Sharofiddinovich

2nd course Master’s student in Economics,
Termez University of Economics and Service

Abstract

This article analyzes the development trends of industrial enterprises in Uzbekistan, modernization processes in industrial sectors, and the impact of innovative technologies on economic efficiency. The study examines industrial production growth rates, digitalization processes, investment activity, and export potential development. The findings show that technological modernization and digital transformation are important factors in improving production efficiency in industrial enterprises.

Keywords: industrial enterprises, industrial development, modernization, digitalization, innovations, production efficiency, export potential.

Kirish

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Sanoat tarmoqlarining rivojlanishi ishlab chiqarish hajmining oshishi, eksport salohiyatining kengayishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi hamda iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuviga xizmat qiladi. Ayniqsa, global raqobatning kuchayishi va raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida sanoat korxonalarida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoatni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish hamda innovatsion texnologiyalar asosida boshqaruv tizimlarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Sanoat iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biri sifatida mamlakat yalpi ichki mahsulotining o'sishida muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, sanoat korxonalarining samarali faoliyati transport, energetika, qurilish, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi kabi boshqa tarmoqlarning rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda sanoat korxonalarining raqobatbardoshligi ko'p jihatdan texnologik yangilanish, resurslardan oqilona foydalanish, innovatsion faoliyat va raqamlashtirish darajasiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda sanoatni rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Mamlakatda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yangi sanoat zonalarini tashkil etish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va mahalliyashtirish darajasini oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada avtomobilsozlik, to'qimachilik, kimyo, elektrotexnika, oziq-ovqat va qurilish materiallari sanoati kabi tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmlari ortib bormoqda. Shu bilan birga, eksportbop va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish orqali mamlakatning tashqi iqtisodiy salohiyati mustahkamlanmoqda.

O'zbekistonda sanoat korxonalarini rivojlantirish jarayonida raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, "Industry 4.0" konsepsiyasi asosida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, sun'iy intellekt, robototexnika, buyumlar interneti (IoT) va katta ma'lumotlar texnologiyalaridan foydalanish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida qaralmoqda. Bunday texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, resurs sarfini kamaytirish, mahsulot sifatini yaxshilash hamda korxonalarining ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

Ishlab chiqarish samaradorligi va sanoat rivojlanishi masalalari ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, A. Isaksson sanoat rivojlanishida texnologik taraqqiyot va innovatsion faoliyatning muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi [1]. I. Van Beveren umumiy omil unumdorligini baholashda texnologik modernizatsiya va raqamlashtirish ishlab chiqarish samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini asoslab bergan [2]. P. Maskell va A. Malmberg esa sanoat korxonalarining raqobatbardoshligi innovatsion muhit va bilimlar almashinuvi bilan chambarchas bog‘liq ekanligini qayd etadi [3]. Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa sanoat korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, investitsion faollikni kuchaytirish va eksportni rivojlantirish masalalari keng yoritilgan.

Shunga qaramasdan, O‘zbekiston sanoat korxonalarining rivojlanish tendensiyalarini kompleks tahlil qilish, sanoatda innovatsion texnologiyalarni joriy etish samaradorligini baholash va mavjud muammolarni aniqlash masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ayniqsa, ayrim sanoat tarmoqlarida eskirgan texnologiyalar ulushining yuqoriligi, ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirish darajasi pastligi hamda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish bilan bog‘liq muammolar mavjudligi sanoat rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli sanoat korxonalarining rivojlanish tendensiyalarini chuqur o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur maqolaning maqsadi O‘zbekistonda sanoat korxonalarining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish, sanoatning iqtisodiy o‘shisdagi o‘rnini baholash hamda sanoat tarmoqlarini yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda O‘zbekistonda sanoat korxonalarining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish va ularning iqtisodiy samaradorligini baholashda zamonaviy iqtisodiy-tahliliy hamda statistik usullardan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini sanoat iqtisodiyoti, innovatsion rivojlanish, raqamlashtirish va ishlab chiqarish samaradorligiga oid xorijiy hamda mahalliy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etdi. Shuningdek, sanoat korxonalarining rivojlanishi bilan bog‘liq ilmiy qarashlar, iqtisodiy konsepsiyalar va zamonaviy yondashuvlar o‘rganildi.

Tadqiqot jarayonida analiz va sintez, statistik guruhlash, qiyosiy tahlil, iqtisodiy taqqoslash hamda dinamik tahlil usullaridan foydalanildi. Ushbu metodlar yordamida O‘zbekistonda sanoat ishlab chiqarishining o‘shish sur‘atlari, sanoat tarmoqlarining rivojlanish ko‘rsatkichlari, investitsion faollik hamda texnologik modernizatsiya

jarayonlari tahlil qilindi. Shu bilan birga, sanoat korxonalarida raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishning ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siri baholandi.

Qiyosiy tahlil usuli asosida sanoat tarmoqlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmlarining o'zgarishi, sanoatning iqtisodiyotdagi ulushi hamda ayrim tarmoqlarning rivojlanish dinamikasi o'rganildi. Statistika guruhlash usuli orqali sanoat korxonalarining faoliyat ko'rsatkichlari tizimlashtirildi va umumlashtirildi. Dinamik tahlil yordamida esa sanoat ishlab chiqarishining yillar davomida o'zgarish tendensiyalari aniqlanib, ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri baholandi.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari, iqtisodiy hisobotlar, xalqaro tashkilotlarning tahliliy materiallari, ilmiy maqolalar hamda iqtisodiy adabiyotlar tashkil etdi. Shuningdek, sanoat korxonalarining rivojlanishiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar va davlat dasturlaridan ham foydalanildi.

Tahlil va natijalar

O'zbekistonda sanoat korxonalarining rivojlanishi iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlarida muhim o'rin egallamoqda. So'nggi yillarda mamlakatda sanoat ishlab chiqarishini kengaytirish, hududiy sanoat zonalarini tashkil etish hamda yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada sanoatning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi ortib, ishlab chiqarish hajmlarida barqaror o'sish kuzatilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sanoat tarmoqlarida olib borilayotgan modernizatsiya jarayonlari korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, ishlab chiqarish uskunalari yangilanishi, energiya tejamoqkor texnologiyalarning joriy etilishi hamda ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish mehnat unumdorligining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, raqamli boshqaruv tizimlaridan foydalanish ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va mahsulot sifatini yaxshilash imkonini bermoqda.

So'nggi yillarda ishlab chiqarish sanoati tarmog'ida yuqori o'sish sur'atlari kuzatilmoqda. Ayniqsa, to'qimachilik, elektrotexnika, qurilish materiallari va oziq-ovqat sanoatida yangi ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilishi sanoat hajmlarining oshishiga xizmat qilmoqda. Bunda davlat tomonidan berilayotgan soliq imtiyozlari, investitsion qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hamda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining kengayishi muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

1-jadval

O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarishining ayrim ko'rsatkichlari (% da)

Ko'rsatkichlar	2018	2020	2024
----------------	------	------	------

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'sishi	114,4	100,7	106,5
Ishlab chiqarish sanoati o'sishi	114,1	107,9	107
Energetika tarmog'i o'sishi	104,1	106,8	105,7
Suv ta'minoti va utilizatsiya sohasi	104,5	99,1	112,1

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarish sanoatida nisbatan yuqori o'sish sur'atlari saqlanib qolgan. Ayniqsa, 2024-yilda ishlab chiqarish sanoatining 107 foizga o'sishi mamlakatda sanoatni modernizatsiya qilish jarayonlari davom etayotganligini ko'rsatadi. Energetika va kommunal xizmatlar sohasida ham barqaror rivojlanish kuzatilgan bo'lib, bu sanoat infratuzilmasining mustahkamlanayotganidan dalolat beradi.

Tahlillar davomida sanoat korxonalarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida investitsion faollik, innovatsion texnologiyalarni joriy etish darajasi, eksport salohiyati va kadrlar salohiyati aniqlandi. Xususan, xorijiy investitsiyalar hisobiga tashkil etilgan yangi korxonalar zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanayotgani ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Sanoat tarmoqlarida raqamlashtirish jarayonlari ham bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda. Ayrim yirik korxonalarda elektron boshqaruv tizimlari, avtomatlashtirilgan monitoring va raqamli logistika tizimlari joriy qilinmoqda. Bu esa ishlab chiqarish jarayonlarini tezkor boshqarish, resurs sarfini nazorat qilish va mahsulot tannarxini pasaytirish imkonini bermoqda.

Shuningdek, eksportga yo'naltirilgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi ham ortib bormoqda. Ayniqsa, to'qimachilik va elektrotexnika sanoatida xalqaro standartlarga mos mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilganligi eksport geografiasining kengayishiga xizmat qilmoqda. Natijada sanoat korxonalarining tashqi bozordagi raqobatbardoshligi ortib bormoqda.

Biroq ayrim muammolar ham mavjud bo'lib, ular sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan, ayrim korxonalarda asosiy fondlarning eskirganligi, ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanilmayotgani, energiya sarfining yuqoriligi hamda innovatsion faoliyat uchun moliyaviy resurslarning cheklanganligi muhim muammolardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, malakali texnik mutaxassislar yetishmovchiligi ham ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga to'siq qilmoqda.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar O‘zbekistonda sanoat korxonalarining rivojlanish tendensiyalari ijobiy yo‘nalishda davom etayotganligini ko‘rsatdi. Kelgusida sanoatda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, raqamli transformatsiyani jadallashtirish, energiya samaradorligini oshirish hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish orqali sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligini yanada mustahkamlash mumkin.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda sanoat korxonalarining rivojlanishi mamlakat iqtisodiy o‘shishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda sanoat tarmoqlarida amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlari, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish natijasida sanoat ishlab chiqarish hajmi va korxonalar samaradorligi oshib bormoqda. Ayniqsa, ishlab chiqarish sanoatida barqaror o‘shish sur‘atlari kuzatilayotgani mamlakatda sanoat siyosatining samarali amalga oshirilayotganligini ko‘rsatadi.

Tahlillar davomida sanoat korxonalarining rivojlanishiga texnologik yangilanish, investitsion faollik, raqamlashtirish va eksport salohiyatining ortishi ijobiy ta‘sir ko‘rsatayotgani aniqlandi. Shu bilan birga, sanoat korxonalarida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, energiya tejamkor texnologiyalar hamda zamonaviy ishlab chiqarish uskunalaridan foydalanish mehnat unumdorligini oshirish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Biroq ayrim sanoat korxonalarida texnologik uskunalarning eskirganligi, innovatsion loyihalar uchun moliyaviy resurslarning yetarli emasligi, energiya sarfining yuqoriligi hamda malakali texnik mutaxassislar yetishmovchiligi kabi muammolar mavjudligi ham aniqlandi. Mazkur holatlar sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish samaradorligini to‘liq ta‘minlashga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida sanoat korxonalarining rivojlanishini yanada jadallashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlarga alohida e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

- sanoat korxonalarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish darajasini oshirish;
- innovatsion va energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish;
- sanoat korxonalariga investitsiyalar jalb qilishni rag‘batlantirish;
- eksportga yo‘naltirilgan va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish;
- sanoat uchun malakali muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish.

Umuman olganda, O‘zbekistonda sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishi mamlakat iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash, yangi ish o‘rinlari yaratish, eksport hajmini oshirish va xalqaro bozordagi raqobatbardoshlikni kuchaytirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Kelgusida innovatsion texnologiyalar va zamonaviy boshqaruv tizimlarini keng qo‘llash orqali sanoat tarmoqlarining samaradorligini yanada oshirish imkoniyati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Isaksson A. *Determinants of Total Factor Productivity: A Literature Review* // Research and Statistics Branch, UNIDO. – 2007. – Vol. 1. – №101.
2. Van Beveren I. *Total Factor Productivity Estimation: A Practical Review* // Journal of Economic Surveys. – 2012. – Vol. 26. – №1. – P. 98–128.
3. Maskell P., Malmberg A. *Localised Learning and Industrial Competitiveness* // Cambridge Journal of Economics. – 1999. – Vol. 23. – №2. – P. 167–185.
4. Sirikrai S. B., Tang J. C. S. *Industrial Competitiveness Analysis: Using the Analytic Hierarchy Process* // The Journal of High Technology Management Research. – 2006. – Vol. 17. – №1. – P. 71–83.
5. Zhang P., London K. *Towards an Internationalized Sustainable Industrial Competitiveness Model* // Competitiveness Review. – 2013. – Vol. 23. – №2. – P. 95–113.
6. Li P., et al. *Digitalization as a Factor of Production in China and the Impact on Total Factor Productivity (TFP)* // Systems. – 2024. – Vol. 12. – №5.
7. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari. – Toshkent, 2024.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sanoatni rivojlantirishga oid farmon va qarorlari. – Toshkent, 2020–2025.
9. Raximov A. N. *Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish omillari* // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy jurnali. – 2024. – №3.
10. Gafurova D. K., Najmiddinova M. *Sanoatda resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish samaradorligi* // Ilmiy tadqiqotlar va yangi innovatsiyalar. – 2025. – №2.
11. Tukhtaeva N. R. *Sanoat ishlab chiqarishining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari* // Scientific Journal of Economics and Finance. – 2025. – Vol. 5. – №3.
12. Shaymanovich A. X. *Mintaqaviy sanoat rivojlanishida innovatsion texnologiyalarning o‘rni* // Modern Education and Development. – 2026. – Vol. 43. – №3.

13. Karimov U. K. *Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoatni modernizatsiya qilish istiqbollari* // International Scientific Conference Proceedings. – 2025. – Vol. 2. – №4.
14. World Bank. *Uzbekistan Country Economic Update*. – Washington DC, 2024.
15. UNIDO. *Industrial Development Report 2024*. – Vienna, 2024